



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, I-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI VA UNING BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI	18
Nazarov G'ayrat Xayrullayevich	
YUKLARNI TASHISHDA ZARURIY TRANSPORT XUJJATLARI.....	22
Ne'matov Husniddin Alijon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATI HUDUDLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI SAMARALI QO'LLASH YO'NALISHLARI.....	27
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
GLOBAL BEQARORLIK SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI	32
Saidnazarova Odinabonu Saidolim qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ИССЛЕДОВАНИЙ В ОБЛАСТИ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ.....	37
Пулатова Мадина Бейсеновна	
Табаев Азамат Зарипбаевич	
MAJBURIYATMI YOKI MAJBURIY RISK? MOLIYAVIY MAJBURIYATLAR KONSEPTUAL ASOSLARINING IQTISODIY TABIATI VA ZAMONAVIY TALQINLARI.....	42
Palvanov Xusniddin Bekimmatovich	
ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ УЧЕТА ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В СИСТЕМЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ.....	47
Пу Кебин	
TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI BARQARORLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	51
Xodjaniyazov Elbek Sardorovich	
VILOYAT SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI KO'P OMILLI EMPIRIK MODELLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH (Qashqadaryo viloyati misolida)	57
Avazova Nafisa Namazovna	
SANOAT KORXONALARI SHOVQINI VA ATMOSFERA CHIQINDILARINING TURAR-JOY HUDUDLARI EKOLOGIYASIGA TA'SIRINI KAMAYTIRISH CHORALARI	61
Saparova Shohida Abduvaliyevna	
SANOAT SHOVQINI VA ATMOSFERA IFLOSLANISHINING SHAHAR TURAR JOY HUDUDLARI VA EKOLOGIYASIGA TASIRINI O'RGANISH.....	65
Shaxyusupova Nilufar Erkin qizi	
BARQAROR SHAHAR RIVOJLANISHIDA SANOAT OQOVA SUVLARINI BIOLOGIK TOZALASH TEXNOLOGIYALARINING ROLI.....	69
Tursunova Aziza Asrorovna	
SHAHAR EKOLOGIK MUHITIGA SANOAT KORXONALARINING TA'SIRINI BAHOLASH.....	75
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AYOLLAR TADBIRKORLIGI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	78
Xusanova Zulfiya Raxmatullayevna	
KORXONALARDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	87
No'monjonova Muazzam Mahbubjon qizi	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	93
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	100
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna	
THE IMPACT OF DIGITAL LITERACY ON LABOR PRODUCTIVITY IN UZBEKISTAN'S SERVICE SECTOR: A REGRESSION ANALYSIS.....	106
Ismoilov Elyorjon Makhamadali Ugli	
Urinov Bobur Nasilloevich	
EKOLOGIK NIZOLARNI HAL ETISHDA SUD AMALIYOTINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	112
Gapparov Sarvar Xolmurodovich	
ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARINING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	116
Djumayeva Guzal Axtamovna	
Yadgarova Madina Xasan qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK SOHASIDAGI KIBERJINOYATLAR: TAHLIL, TAHDID VA MUHOFAZA MEKANIZMLARI	120
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna	
ПРОБЕЛЫ В МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ СОВМЕСТНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ТРАНСГРАНИЧНЫХ РЕК ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ БАСЕЙНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ).....	126
Тиллахуджаев Аббосхон	
Дилфуза Шакирова	
Мухамедалиева Сайёра	
Ойбек Камилов	
ALOQA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI VA BAHOLASH USULLARI	139
Xazratov Abror Panjiyevich	
STRATEGIC HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES.....	146
Sultonboyeva Munira Bahodirovna	
Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI.....	154
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Nomozov G'ofur Abdusalomovich	
DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING ASOSIY YO'NALISHLARI: STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYA VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH	158
Izbosarov Bobur Baxriddinovich	
Umirov Sherzod Baxriddinovich	
INTEGRATION OF TRADE MARKETING AND E-COMMERCE: COMBINING ONLINE AND OFFLINE SALES CHANNELS	162
Mamatkulova Shoira Jalolovna	
AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	168
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li	



AHOLIGA SAVDO XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASINI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

E-mail: farruxqodirov0902@gmail.com

ORCID: 0000-0002-4574-7728

Jurayev Suxrobjon Saloxiddin o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, assistent-o'qituvchi

E-mail: suxrobjon.jurayev96@gmail.com

ORCID: 0009-0009-9924-5019

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda aholiga savdo xizmatlari ko'rsatish sohasini raqamlashtirish mexanizmini takomillashtirish masalasi keng ko'lamli statistik tahlil, qiyosiy baholash va xalqaro tajribani o'rganish asosida kompleks ravishda tadqiq etilgan. Tadqiqotda 2019–2024-yillar davomida raqamli savdo ko'rsatkichlari barcha 14 hudud kesimida tahlil qilinib, amaldagi mexanizmlarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatlari aniqlangan. Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Gruziya tajribalari bilan qiyosiy tahlil asosida O'zbekiston sharoitiga mos 10 ta takomillashtirish yo'nalishi ishlab chiqilgan. Maqolada taklif etilgan takomillashtirilgan mexanizm to'liq joriy etilgan taqdirda, 2030-yilga qadar elektron tijorat ulushini 12,8 foizdan 40 foizga, raqamli ish o'rinlari sonini esa 186 ming kishidan 520 ming kishiga yetkazish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: savdo xizmatlari, raqamlashtirish, mexanizm, elektron tijorat, raqamli to'lovlar, logistika, kichik va o'rta biznes, hududiy rivojlanish, kiberxavfsizlik, O'zbekiston.

Abstract. This article comprehensively examines the improvement of the mechanism for digitalizing trade services for the population in Uzbekistan through extensive statistical analysis, comparative assessment, and a review of international best practices. The study analyzes digital trade indicators across all 14 regions of the country during 2019–2024 and identifies opportunities for further development and enhancement of existing mechanisms. Based on a comparative analysis of the experiences of China, South Korea, Singapore, and Georgia, ten improvement directions adapted to Uzbekistan's conditions are proposed. The article demonstrates that full implementation of the proposed mechanism could increase the share of e-commerce from 12.8 percent to 40 percent and expand digital employment from 186 thousand to 520 thousand people by 2030.

Keywords: trade services, digitalization, mechanism, e-commerce, digital payments, logistics, small and medium-sized enterprises, regional development, cybersecurity, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье комплексно исследуются вопросы совершенствования механизма цифровизации сферы торговых услуг для населения Узбекистана на основе статистического анализа, сравнительной оценки и изучения международного опыта. В исследовании проанализированы показатели цифровой торговли по всем 14 регионам страны за 2019–2024 годы и определены возможности дальнейшего развития и совершенствования действующих механизмов. На основе сравнительного анализа опыта Китая, Южной Кореи, Сингапура и Грузии разработаны 10 направлений совершенствования, адаптированных к условиям Узбекистана. Обосновано, что полное внедрение предложенного механизма позволит к 2030 году увеличить долю электронной торговли с 12,8 % до 40 %, а также повысить численность занятых в цифровой экономике с 186 тыс. до 520 тыс. человек.

Ключевые слова: торговые услуги, цифровизация, механизм, электронная коммерция, цифровые платежи, логистика, малый и средний бизнес, региональное развитие, кибербезопасность, Узбекистан.



KIRISH

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo xizmatlari sohasini raqamlashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikning muhim ko'rsatkichi, balki milliy raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. 2023-yilga kelib global elektron tijorat bozori hajmi 5,8 trillion AQSH dollarini tashkil etdi va 2027-yilga borib 8 trillion AQSH dollaridan oshishi prognoz qilinmoqda [1]. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida raqamli savdoni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, mazkur yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda elektron tijorat ulushi 2023-yilda 12,8 foizni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich Janubiy Koreyada 69 foiz, Xitoyda 35 foiz va Gruziyada 21 foizni tashkil etganligi mamlakatda raqamli savdo salohiyatini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari hududlar kesimida sezilarli farqlanadi: Toshkent shahri 78,4 ballik raqamlashtirish indeksiga ega bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatida ushbu ko'rsatkich 20–23 ball atrofida shakllangan [2]. Mazkur hududiy tafovutlar savdo xizmatlarini raqamlashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilmoqda. Brynjolfsson va McAfee (2014) raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ta'sirini uch asosiy yo'nalish – xarajatlarni kamaytirish, bozorlarni kengaytirish va innovatsiyalarni jadallashtirish orqali tavsiflaydi [3]. Mualliflarning ta'kidlashicha, raqamli transformatsiya nafaqat texnologiyalarni joriy etish, balki institutsional va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Xitoy tajribasini tahlil qilgan Zeng (2018) mamlakatning elektron tijoratdagi muvaffaqiyati yagona raqamli infratuzilma – Alipay to'lov tizimi, Cainiao logistika tarmog'i va Taobao platformasi ekotizimining o'zaro integratsiyalashgan faoliyati bilan izohlanishini qayd etadi [4]. Singapur tajribasini o'rgangan Tan va boshqalar (2021) hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlangan kichik va o'rta biznesni raqamlashtirish dasturlari natijasida besh yil ichida raqamli texnologiyalarni qabul qilish darajasi 96 foizga yetganligini aniqlagan [5].

O'zbekiston bo'yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda Abdullayev va Mirzayev (2023) elektron tijoratni tartibga solishda institutsional muvofiqlashtirishni kuchaytirish samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligini ta'kidlaydilar [6]. Umarov va Xolmatov (2023) esa platformalarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar sifatida to'lov tizimlarining qulayligi, logistika xizmatlarining tezkorligi va iste'molchilar ishonchini ko'rsatadilar [7]. Mazkur tadqiqot ushbu ilmiy ishlanmalar asosida savdo xizmatlarini raqamlashtirishning kompleks mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda to'rtta asosiy metodologik yondashuvdan foydalanilgan.

Birinchi yondashuv – longitudinal statistik tahlil bo'lib, unda O'zbekistonda savdo xizmatlarini raqamlashtirish ko'rsatkichlarining 2019–2024-yillardagi dinamikasi barcha 14 hudud kesimida o'rganildi (Uzstat, RTM va MBU ma'lumotlari asosida).

Ikkinchi yondashuv – mexanizm elementlarini baholash matritsasi bo'lib, unda 10 ta mexanizm elementi amaldagi holati, ta'sir darajasi (1–5 ball) hamda takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha baholandi. Baholash 52 nafar soha eksperti (platforma rahbarlari, iqtisodchilar va davlat xizmatchilari) o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga asoslandi.

Uchinchi yondashuv – qiyosiy-institutsional tahlil bo'lib, unda Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Gruziya tajribasi O'zbekiston bilan 7 ta asosiy ko'rsatkich bo'yicha taqqoslandi. Mamlakatlarni tanlashda ularning yuqori natijalarga erishganligi hamda tajribani transfer qilish imkoniyatlari mezon sifatida qabul qilindi.

To'rtinchi yondashuv – ssenariyli modellashtirish bo'lib, unda takomillashtirilgan mexanizmning 2030-yilgacha bo'lgan istiqbollari bazaviy va optimallashtirilgan ssenariylar asosida prognoz qilindi. Tadqiqotning asosiy ma'lumotlar bazasini Uzstat, RTM, MBU, UNCTAD, World Bank Digital Economy Report hamda 2023-yilda 287 ta korxonada ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli savdo dinamikasi (2019–2024-yillar)

1-jadvalda O'zbekistonda savdo xizmatlarini raqamlashtirish ko'rsatkichlarining 2019–2024-yillardagi dinamikasi keltirilgan. Tahlil natijalari barcha asosiy ko'rsatkichlarda barqaror va yuqori o'sish sur'atlari kuzatilganligini ko'rsatadi. Xususan, elektron tijorat hajmi qariyb 6 barobar, raqamli iqtisodiyotda yaratilgan ish o'rinlari soni esa 14 barobardan ortiq oshgan (1-jadval).



1-jadval

O'zbekistonda savdo xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2019–2024-yillar)¹

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024*
E-tijorat hajmi (trln so'm)	0.84	1.74	3.24	5.61	9.38	14.2*
E-tijorat ulushi (% chakana savdoda)	2.1	3.8	6.4	9.2	12.8	17.1*
Raqamli to'lovlar hajmi (trln so'm)	3.2	6.8	14.3	24.7	38.6	54.8*
Faol savdo platformalari soni	3	5	9	14	19	24*
Onlayn buyurtmalar ulushi (%)	4.2	8.6	14.3	21.8	31.4	41.2*
Raqamli savdo korxonalari (ming ta)	12.4	24.8	48.6	87.3	142.6	198.4*
Elektron savdo sohasidagi ish o'rinlari (ming kishi)	18.4	36.7	68.4	112.8	186.4	258.6*

1-rasm. E-tijorat hajmi (trln so'm) va ulushi (% chakana savdodan) dinamikasi — O'zbekiston, 2019–2024

2019: E-tijorat hajmi	0.84 trln so'm
2020: E-tijorat hajmi	1.74 trln so'm
2021: E-tijorat hajmi	3.24 trln so'm
2022: E-tijorat hajmi	5.61 trln so'm
2023: E-tijorat hajmi	9.38 trln so'm
2024: E-tijorat hajmi	14.2 trln so'm

Manba: Uzstat (2024); RTM; muallif hisob-kitoblari

E-tijorat hajmining yillik o'rtacha o'sish sur'ati (CAGR) 2019–2024-yillarda 76,4 foizni tashkil etdi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Biroq mazkur o'sishning asosiy qismi Toshkent shahri va yirik viloyatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Raqamli to'lovlar hajmi 3,2 trln so'mdan 54,8 trln so'mga yetib, 17,1 barobar oshdi. Faol savdo platformalari soni 3 tadan 24 taga ko'paydi, biroq ularning asosiy qismi Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda [2].

Viloyatlar bo'yicha raqamlashtirish holati va hududiy tafavutlar

2-jadvalda O'zbekistonning 14 ta hududi bo'yicha raqamlashtirish darajasi va asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan. Raqamlashtirish indeksi elektron tijorat ulushi, raqamli to'lovlar darajasi, internet qamrovi, raqamli ish o'rinlari hamda yalpi hududiy mahsulotda raqamli iqtisodiyot ulushi asosida 0–100 ballik shkala bo'yicha hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston hududlari bo'yicha raqamlashtirish holatining qiyosiy tavsifi (2023-yil)²

Hudud	E-tijorat ulushi (%)	Raqamli to'lovlar (%)	Internet qamrovi (%)	Raqamli ish o'rinlari (ming kishi)	YalMda raqamli ulush (%)	Raqamlashtirish indeksi (0–100)
Toshkent shahri	28.4	71.4	89.3	184.3	8.4	78.4
Toshkent viloyati	18.6	52.3	81.4	42.6	6.1	61.2
Samarqand	14.2	41.8	74.2	38.4	4.8	52.6
Farg'ona	13.8	39.4	72.6	28.7	4.4	49.8
Andijon	13.4	38.6	71.8	31.2	4.2	48.4
Namangan	12.6	36.2	69.4	24.8	3.9	46.2
Buxoro	11.8	34.8	67.3	21.4	3.6	44.7
Qashqadaryo	10.2	31.4	63.8	13.5	3.1	38.4
Xorazm	8.6	27.4	58.7	9.8	2.6	32.8
Surxondaryo	7.4	24.6	56.4	6.2	2.2	29.6
Navoiy	7.2	23.8	54.6	8.4	2.1	28.6
Jizzax	6.8	22.4	52.3	5.4	1.9	26.4
Sirdaryo	5.8	19.6	48.4	4.2	1.6	22.8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5.2	17.8	44.8	4.8	1.4	20.4

1 **Manba:** Uzstat ma'lumotlari, Raqamli texnologiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari hamda muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan.

Izoh: 2024-yil bo'yicha ko'rsatkichlar prognoz qiymatlarni ifodalaydi.

2 **Manba:** Uzstat (2023) ma'lumotlari, Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlari hamda muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan. Raqamlashtirish indeksi 0–100 ballik shkala asosida hisoblangan.



2-rasm. Viloyatlar raqamlashtirish indeksi (0–100, 2023) — Hududiy tafovut ko‘rinishi

Toshkent shahri	78.4 ball
Toshkent viloyati	61.2 ball
Samarqand	52.6 ball
Farg'ona	49.8 ball
Andijan	48.4 ball
Namangan	46.2 ball
Buxoro	44.7 ball
Qashqadaryo	38.4 ball
Xorazm	32.8 ball
Surxondaryo	29.6 ball
Navoiy	28.6 ball
Jizzax	26.4 ball
Sirdaryo	22.8 ball
Qoraqalpog'iston	20.4 ball

Manba: Muallif hisob-kitoblari asosida (Uzstat, RTM ma'lumotlari, 2023)

Toshkent shahri (78,4 ball) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (20,4 ball) o'rtasidagi 58 ballik farq savdo xizmatlarini raqamlashtirish darajasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Raqamlashtirish indeksi 40 balldan past bo'lgan hududlar (Qashqadaryo, Xorazm, Surxondaryo, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo va Qoraqalpog'iston Respublikasi) mamlakat aholisining qariyb 35 foizini qamrab oladi. Mazkur hududlarda elektron tijorat ulushi 10 foizdan past, raqamli to'lovlar darajasi esa 30 foizdan kam bo'lib qolmoqda.

Mavjud mexanizmning zaif tomonlari va to'siqlar tahlili


52 nafar ekspert hamda 287 ta korxonada o'tkazilgan so'rov natijalari asosida savdo xizmatlarini raqamlashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi 8 ta asosiy to'siq aniqlandi. Ularning ta'sir darajasi, qamrovi va tavsiya etilgan yechimlari 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

3-jadval

Savdo xizmatlarini raqamlashtirish jarayonidagi asosiy to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari (n = 287 korxonada va 52 ekspert, 2023-yil)³

№	To'siq	Ta'sir darajasi (1–5 ball)	Qamrov (%)	Tavsiya etilgan yechim
1	Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish zarurati	5	54,8	Davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni kengaytirish
2	Raqamli savodxonlik darajasini oshirish imkoniyatlari	5	67,3	OTMLar va ta'lim muassasalarida maxsus o'quv dasturlarini joriy etish
3	To'lov tizimlari integratsiyasini kengaytirish zarurati	5	61,2	UzQR+ yagona standartini joriy etish
4	Logistika xarajatlarining yuqoriligi	4	72,1	Milliy raqamli logistika markazini tashkil etish
5	Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish zarurati	4	39,6	Elektron tijorat to'g'risidagi qonunchilikni yangilash
6	Moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi	4	61,8	Grantlar va imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish
7	Iste'molchilar ishonchini yanada mustahkamlash zarurati	3	44,3	Sertifikatlash va kafolat tizimini rivojlantirish
8	Kiberxavfsizlik bilan bog'liq xatarlar	3	31,4	UZINFOCOM sertifikatlash tizimi va malaka oshirish treninglarini kengaytirish

³ Manba: Muallif tomonidan 2023-yilda O'zbekistonning barcha hududlarida o'tkazilgan so'rov natijalari asosida tuzilgan (n = 287 korxonada va 52 ekspert).

3-rasm. Raqamlashtirish mexanizmi to'siqlari tarqalishi (% , n=287 korxonalar, 2023)


Manba: Muallif so'rovi (n=287 korxonalar, 2023-yil)

Tahlil natijalariga ko'ra, aniqlangan barcha 8 ta to'siq o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birining ta'sirini kuchaytiradi. Jumladan, logistika xarajatlarining yuqoriligi (72,1 foiz) va raqamli savodxonlik darajasini yanada oshirish zarurati (67,3 foiz) kabi omillar alohida bartaraf etilgan taqdirda ham, to'lov tizimlari o'rtasidagi integratsiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi (61,2 foiz) umumiy samaradorlikning to'liq namoyon bo'lishini cheklashi mumkin. Mazkur holat «to'siqlar ekotizimi» konsepsiyasini tasdiqlaydi. Ya'ni, raqamlashtirish jarayonida tizimli yondashuvni qo'llamasdan turib, alohida elementlarni takomillashtirish kutilgan natijalarni to'liq ta'minlay olmaydi [6].


Raqamlashtirish mexanizmlarining xalqaro qiyosiy tahlili

4-jadvalda O'zbekistonning savdo xizmatlarini raqamlashtirish mexanizmi Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Gruziya tajribasi bilan taqqoslangan. Ushbu mamlakatlar raqamli savdoni rivojlantirish bo'yicha erishilgan natijalari, institutsional mexanizmlari hamda amaliy tajribalarining O'zbekiston sharoitiga moslashuvchanligi sababli tahlil uchun tanlab olindi (4-jadval).

4-jadval

Savdo xizmatlarini raqamlashtirish mexanizmlarining xalqaro qiyosiy tahlili (2023-yil)⁴

Mexanizm / ko'rsatkich	O'zbekiston	Xitoy	Janubiy Koreya	Singapur	Gruziya
E-tijorat ulushi (%)	12,8	35,0	69,0	52,0	21,0
Onlayn biznesni ro'yxatdan o'tkazish muddati (kun)	7–20	1	1	0,5	1
Raqamli to'lovlar ulushi (%)	48,2	87,4	94,1	91,2	74,3
E-tijorat uchun soliq imtiyozlari	Cheklangan	3 yil	2 yil	3 yil	1 %
Milliy platformaning mavjudligi	Qisman	Ha (Alibaba)	Ha (Naver)	Ha (Lazada)	Rivojlantirilmoqda
Logistika jarayonlarining raqamlashtirish darajasi (%)	38,4	96,2	91,4	97,8	64,8
Kichik va o'rta biznes uchun grant dasturlari (AQSH dollari)	Mavjud emas	10 000	15 000	22 000	8 000

4-rasm. E-tijorat ulushi (% chakana savdodan) — O'zbekiston va etakchi mamlakatlar, 2023


Manba: UNCTAD (2023); Milliy statistika agentliklari

4 **Manba:** UNCTAD (2023), World Bank Digital Economy Report, milliy statistika ma'lumotlari hamda muallif ishlanmalari asosida tuzilgan.



Xalqaro taqqoslash natijalari bir qator muhim xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, tahlil qilingan barcha yetakchi mamlakatlarda biznesni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni 1 kun yoki undan kam vaqtni talab qiladi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich 7–20 kunni tashkil etadi. Ikkinchidan, Singapurda kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash uchun bir korxonaga 22 ming AQSH dollari miqdoridagi grant dasturi amalda qo'llanilmoqda. O'zbekiston sharoitida esa Gruziyaning bir korxonaga 8 ming AQSH dollari ajratish tajribasi byudjet imkoniyatlariga mos va amaliy jihatdan maqbul model sifatida qaralishi mumkin. Uchinchidan, Janubiy Koreyada yagona QR-to'lov standarti (Zero-Pay) joriy etilishi natijasida 18 oy davomida raqamli to'lovlar qamrovi 61 foizdan 91 foizga yetgan. Mazkur tajriba O'zbekistonda UzQR+ loyhasini rivojlantirish istiqbollarning yuqori ekanligini ko'rsatadi [8].

RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MODELII

5-jadvalda savdo xizmatlarini raqamlashtirish mexanizmining asosiy elementlari, ularning amaldagi holati, takomillashtirish yo'nalishlari hamda kutilayotgan natijalari tizimli ravishda baholangan. Mazkur matritsa mavjud mexanizmning rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash va ustuvor yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi (5-jadval).

5-jadval
Savdo xizmatlarini raqamlashtirish mexanizmlarini baholash matritsasi (2023-yil)⁵

No	Mexanizm nomi	Mexanizm turi	Hozirgi holati	Takomillashtirish yo'nalishi	Kutilayotgan natija
1	Raqamli ro'yxatga olish va litsenziyalash	Ma'muriy	Qisman joriy etilgan	Yagona onlayn darcha tizimini yaratish	Jarayon muddati 20 kundan 1 kungacha qisqaradi
2	Soliq imtiyozlari va rag'batlantirish mexanizmlari	Moliyaviy	Cheklangan	Elektron tijorat uchun 2 yillik QQS imtiyozini joriy etish	Yangi ishtirokchilar soni 40 foizga oshadi
3	Yagona to'lov standarti (UzQR+)	Infratuzilmaviy	Mavjud emas	Markaziy bank koordinatsiyasida joriy etish	Terminallar qamrovi 58 foizga kengayadi
4	Raqamli savdo ma'lumotlari platformasi	Axborot	Boshlang'ich bosqichda	Open API arxitekturasini joriy etish	Bozor shaffofligi oshadi
5	Kichik va o'rta biznesni raqamlashtirish grant dasturi	Moliyaviy	Cheklangan	Har bir subyekt uchun yiliga 15 mln so'm grant ajratish	Yiliga 50 mingta korxonaga qamrab olinadi
6	Elektron tijorat qonunchiligini takomillashtirish	Huquqiy	Amaldagi me'yorlarni yangilash zarur	UNCITRAL model qonuni asosida modernizatsiya qilish	Huquqiy aniqlik darajasi 70 foizga oshadi
7	Milliy logistika raqamli tizimi	Infratuzilmaviy	Mavjud emas	GPS monitoring va sun'iy intellekt asosidagi marshrutlash tizimini joriy etish	Yetkazib berish muddati 50 foizga qisqaradi
8	Raqamli savodxonlikni rivojlantirish dasturi	Ijtimoiy	Cheklangan	Maktablar va OTMlarda maxsus kurslarni joriy etish	Har yili 1 mln nafar fuqaro qamrab olinadi
9	Elektron tijorat kiberxavfsizlik sertifikatini	Institutsional	Mavjud emas	UZINFOCOM sertifikatlash tizimini joriy etish	Iste'molchilar ishonchi indeksi 45 foizga oshadi
10	Hududiy raqamlashtirish indeksi	Monitoring	Mavjud emas	Hududlar bo'yicha yillik baholash tizimini yaratish	Hududlararo tafovutlar 40 foizga qisqaradi

Matritsa tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, baholangan 10 ta mexanizm elementidan 5 tasi hozirgi vaqtda yetarli darajada shakllanmagan yoki rivojlantirishni talab etadigan holatda mavjud. Bu esa savdo xizmatlarini raqamlashtirish tizimida qo'shimcha takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, elektron tijorat kiberxavfsizlik sertifikatini, hududiy raqamlashtirish indeksi hamda Open API asosidagi raqamli ma'lumotlar platformasi tizimning ustuvor rivojlantirish yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur elementlarni takomillashtirish boshqa mexanizmlar samaradorligini ham sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

⁵ **Manba:** Muallif tahlillari, 52 nafar ekspert o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, ilmiy adabiyotlar hamda platformalar ma'lumotlari asosida tuzilgan (2023-yil).

**Takomillashtirish yo'l xaritasi**

6-jadvalda savdo xizmatlarini raqamlashtirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan 10 ta ustuvor tadbir mas'ul tashkilotlar, moliyalashtirish manbalari, maqsadli ko'rsatkichlar hamda amalga oshirish muddatlari kesimida keltirilgan. Tadbirlar ustuvorlik darajasiga ko'ra guruhlangan bo'lib, dastlab tizimning asosiy infratuzilmaviy elementlarini shakllantirish, keyinchalik kengaytirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish, so'ngra monitoring va xavfsizlik tizimlarini takomillashtirish nazarda tutilgan (6-jadval).

6-jadval

Savdo xizmatlarini raqamlashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yichayo'l xaritasi (2025–2028-yillar)⁶

No	Tadbir	Mas'ul tashkilot	Moliyalashtirish manbai	Maqsadli ko'rsatkich	Muddat
1	Milliy raqamli savdo platformasini (yagona darcha) yaratish	RTM, Raqamli texnologiyalar vazirligi	Davlat byudjeti – 120 mlrd so'm	Kichik va o'rta biznes subyektlarining 60 % qamroviga erishish	2025–2027
2	UzQR+ yagona to'lov standartini joriy etish	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki	Markaziy bank mablag'lari – 48 mlrd so'm	Naqdsiz tranzaksiyalar ulushini 80 % ga yetkazish	2025–2026
3	Elektron tijorat yo'nalishida kichik va o'rta biznes grant dasturini amalga oshirish	STP, SPIV, Savdo vazirligi	Davlat fondlari – yiliga 750 mlrd so'm	Har yili 50 mingta korxonani raqamlashtirish	2025–2028
4	Qishloq elektron savdo xizmatlari markazlarini tashkil etish (500 ta)	Mahalliy hokimliklar, RTM	Davlat-xususiy sheriklik asosida – 200 mlrd so'm	500 ta markazni ishga tushirish	2025–2027
5	Milliy raqamli logistika tizimini yaratish	Investitsiyalar va tashqi savdo sohasi tashkilotlari	Xususiy investitsiyalar va davlat mablag'lari	Yetkazib berish muddatini 50 % ga qisqartirish	2026–2028
6	Elektron tijorat qonunchiligini takomillashtirish	Adliya vazirligi, Oliy Majlis	Davlat byudjeti mablag'lari	UNCITRAL standartlariga moslashtirish	2025
7	Raqamli savodxonlikni rivojlantirish dasturini amalga oshirish (yiliga 1 mln kishi)	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda OTMLar	Davlat byudjeti – yiliga 84 mlrd so'm	Raqamli ko'nikmalar darajasini 58 % dan 80 % ga yetkazish	2025–2027
8	Elektron tijorat kiberxavfsizlik sertifikatlash tizimini joriy etish	UZINFOCOM, RTM	Davlat byudjeti – 24 mlrd so'm	Platformalarning to'liq sertifikatlanishini ta'minlash	2026–2027
9	Hududiy raqamlashtirish indeksini joriy etish	Statistika agentligi, RTM	Davlat byudjeti mablag'lari	Har yili 14 ta hudud bo'yicha baholashni amalga oshirish	2025
10	Open API asosidagi raqamli ma'lumotlar platformasini yaratish	Raqamli texnologiyalar vazirligi	Xalqaro grantlar va davlat byudjeti mablag'lari	Bozor shaffofligini oshirish va ma'lumotlar integratsiyasini kuchaytirish	2025–2026

5-rasm. Takomillashtirilgan mexanizm: prognoz ko'rsatkichlari — E-tijorat ulushi (%)

2023 (hozirgi holat)	12.8%
2025 (asos stsenariy)	18.4%
2026 (asos stsenariy)	24.6%
2027 (optimallashtirish)	31.2%
2028 (optimallashtirish)	36.8%
2030 (maqsad ko'rsatkich)	40%

Manba: Muallif prognozi; «Raqamli O'zbekiston 2030» strategiyasi asosida

Yo'l xaritasining markaziy elementi – Milliy raqamli savdo platformasini yaratish (1-tadbir) hisoblanadi. Mazkur platforma Estoniyaning X-Road infratuzilmasi hamda Xitoyning Alibaba ekotizimi tajribasi asosida

⁶ Manba: Muallif ishlanmalari, xalqaro amaliyot hamda tadqiqot natijalari asosida tuzilgan (2024-yil).



shakllantirilib, biznesni ro'yxatdan o'tkazish, to'lovlarni amalga oshirish, buyurtmalarni boshqarish, logistika xizmatlari va monitoring jarayonlarini yagona raqamli muhitda integratsiyalash imkonini beradi. Platformani yaratish uchun dastlabki bosqichda 120 mlrd so'm investitsiya talab etiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu loyiha 5 yil davomida qariyb 800 mlrd so'm miqdorida sof iqtisodiy samara keltirishi mumkin.

UzQR+ yagona to'lov standarti (2-tadbir) O'zbekiston sharoitida qisqa muddatda yuqori natija berishi kutilayotgan ustuvor yo'nalishlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki koordinatsiyasida 24 oy davomida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan mazkur standart barcha to'lov tizimlarini yagona QR-infratuzilmaga birlashtirish imkonini beradi. Janubiy Koreya tajribasi asosida amalga oshirilgan baholashlarga ko'ra, ushbu chora 18 oy ichida savdo terminallari qamrovini 38 foizdan 80 foizgacha oshirish imkoniyatiga ega [8].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda aholiga savdo xizmatlari ko'rsatish sohasini raqamlashtirish mexanizmi kompleks va tizimli ravishda tahlil qilinib, uning rivojlanish tendensiyalari, mavjud imkoniyatlari hamda takomillashtirish yo'nalishlari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mamlakatda elektron tijorat hajmi 2019–2024-yillarda 16,9 baravarga oshib, 14,2 trln so'mga yetgan. Shu bilan birga, elektron tijoratning chakana savdodagi ulushi 12,8 foizni tashkil etib, mazkur sohada kelgusida yanada yuqori natijalarga erishish uchun salmoqli salohiyat mavjudligini namoyon etmoqda.

Tahlillar hududlar kesimida raqamlashtirish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, Toshkent shahri 78,4 ballik raqamlashtirish indeksiga ega bo'lgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida ushbu ko'rsatkich 20,4 ballni tashkil etgan. Mazkur holat raqamli savdo xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini hududlar bo'yicha yanada muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida amaldagi mexanizmning ayrim elementlari qo'shimcha rivojlantirish va takomillashtirishni talab qilishi aniqlandi. Jumladan, elektron tijorat kiberxavfsizlik sertifikati, hududiy raqamlashtirish indeksi hamda Open API asosidagi ma'lumotlar platformasini joriy etish va rivojlantirish savdo xizmatlarini raqamlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Xalqaro tajriba tahlili natijasida esa O'zbekiston sharoitida muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin bo'lgan mexanizmlar aniqlandi. Xususan, Singapurning kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash grant dasturi, Janubiy Koreyaning yagona QR-to'lov standarti hamda Gruziyaning tezkor onlayn biznesni ro'yxatdan o'tkazish tizimi mamlakatimiz uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalar sifatida baholandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan 10 ta ustuvor tadbirdan iborat takomillashtirilgan mexanizm to'liq amalga oshirilgan taqdirda, 2030-yilga qadar elektron tijorat ulushini 12,8 foizdan 40 foizga, raqamli ish o'rinlari sonini 186 ming kishidan 520 ming kishiga hamda yillik raqamli savdo hajmini 54,8 trln so'mdan 180 trln so'mga yetkazish imkoniyati mavjudligi asoslandi. Bu esa savdo xizmatlari samaradorligini oshirish, aholi uchun qulay va zamonaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirish hamda mamlakatning raqamli iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda taklif etilgan mexanizm elementlarining samaradorligini panel ma'lumotlar asosida ekonometrik usullar yordamida baholash, gender va yosh guruhlar kesimida raqamli savdo xizmatlaridan foydalanish xususiyatlarini chuqur o'rganish hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining savdo xizmatlari rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- UNCTAD. (2023). *Global E-Commerce Review 2022: Trends, Facts and Figures*. United Nations, Geneva. <https://unctad.org/e-commerce>
- Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2024). *Raqamli iqtisodiyot rivojlanish hisoboti 2023–2024*. Toshkent: RTM nashri.
- Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. New York: W.W. Norton & Company.
- Zeng, M. (2018). *Smart Business: What Alibaba's Success Reveals about the Future of Strategy*. Boston: Harvard Business Review Press.
- Tan, A., Lim, C., & Wong, R. (2021). Government-Led SME Digitalisation: Evaluation of Singapore's IMDA Enterprise Development Grant. *Singapore Economic Review*, 66(2), 389–412.
- Abdullayev, K., & Mirzayev, B. (2023). O'zbekistonda raqamli savdo siyosati: fragmentatsiya va integratsiya muammolari. *O'zbek iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 9(3), 44–61.
- Umarov, H., & Xolmatov, J. (2023). Platforma raqobatbardoshligining asosiy omillari: O'zbekiston misolida. *Biznes va texnologiyalar jurnali*, 12(2), 88–104.



8. Korea Internet & Security Agency (KISA). (2023). Korea Internet White Paper 2023. Seoul: KISA.
9. O'zbekiston Statistika qo'mitasi (Uzstat). (2023). Yillik statistik to'plam – 2023. Toshkent: Uzstat.
10. O'zbekiston Markaziy banki (MBU). (2024). To'lov tizimlari rivojlanish hisoboti – 2023. Toshkent: MBU.
11. World Bank. (2023). Unleashing the Digital Economy: Uzbekistan Country Report. Washington, D.C.: World Bank Group.
12. OECD. (2023). OECD Digital Economy Outlook 2023. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/47a5a4f3-en>
13. Georgian Innovation and Technology Agency (GITA). (2022). SME Digitalisation Impact Assessment 2019–2022. Tbilisi: GITA.
14. Alibaba Research Institute. (2023). Rural E-Commerce Development: Taobao Village Annual Report. Hangzhou: Alibaba Group.
15. Hasanov, M., & Ismoilov, F. (2023). Raqamli texnologiyalar va savdo samaradorligi: O'zbekiston KOB tajribasi. *Biznes va iqtisodiyot jurnali*, 19(4), 201–218.
16. Toshmatov, S., Yusupova, N., & Karimov, R. (2022). O'zbekistonda hududiy raqamli tafovut: o'lchash va siyosat. *Toshkent iqtisodiy sharhi*, 5(3), 78–96.
17. Singapore Economic Development Board (EDB). (2023). Digital Economy Industry Insights. Singapore: EDB.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. (2020). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>